O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Pista mag‘zi va po‘sti archilgan pista mag‘zini savdosi hamda tijorat sifati nazoratiga oid standart

(DDP-10:2010, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart DDP-10:2010 “Concerning the marketing and commercial quality control of pistachio kernels and peeled pistachio kernels” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar, eksport qiluvchilar va boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining istalgan a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish uchun <www.unece.org/trade/agr> veb-saytiga tashrif buyuring.

Pista mag‘zi uchun yangi Standart Ishchi guruhning oltmish oltinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2010/10 hujjatiga asoslanadi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

PISTA MAG‘ZI VA PO‘STI ARCHILGAN PISTA MAG‘ZINI SAVDOSI HAMDA TIJORAT SIFATI NAZORATIGA OID STANDART

СТАНДАРТ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЯДЕР ФИСТАШКИ И ОЧИЩЕННЫХ ЯДЕР ФИСТАШКИ

CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF PISTACHIO KERNELS AND PEELED PISTACHIO KERNELS

Amalga kiritish sanasi **1.08.2026 y**

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’mol qilish yoki keyinchalik qo‘shimcha ishlov berilmagan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’mol qilinadigan boshqa mahsulotlar bilan aralashtirish uchun mo‘ljallangan, himoya qobig‘i (perikarpij) olib tashlangan haqiqiy pista (*Pistacia vera* L.) daraxti navlaridan (kultivarlaridan) olingan pista mag‘zi va archilgan pista mag‘ziga tatbiq etiladi. Ushbu standart tuzlash, shakarlash, xushbo‘ylashtirish yoki qovurish yo‘li bilan qayta ishlangan, shuningdek, sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan pista mag‘zi va archilgan pista mag‘ziga tatbiq etilmaydi.

II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan so‘ng, eksport nazorati bosqichida pista mag‘zi va archilgan pista mag‘ziga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat. Biroq, agar standart eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulot egasi standart talablariga rioya etilishi uchun javobgar bo‘ladi. Ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulot egasi (sotuvchisi) bunday mahsulotlarni namoyish etishga, sotuvga taklif qilishga, yetkazib berishga yoki boshqa har qanday usulda sotish mumkin emas.

Minimal talablar[1]

Har bir nav uchun belgilangan maxsus talablar va ruxsat etilgan chetlanishlar (tolerantliklar) hisobga olingan holda, barcha navlardagi pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- butun (shikastlanmagan); bunda yuzaki yengil shikastlanishlar nuqson hisoblanmaydi;
- sog‘lom (buzuq bo‘lmagan); iste’mol uchun yaroqsiz holga keltiruvchi chirish yoki sifatining buzilishi belgilari mavjud mahsulotlar bundan mustasno;
- toza, ya’ni ko‘zga ko‘rinadigan yot aralashmalardan amalda xoli;
- rivojlanishining istalgan bosqichidagi tirik zararkunandalardan xoli;

[1] Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari quruq (qobiqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) hamda quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar va nuqsonlar ta’riflarining Andoza hujjati (Standard Layout) III ilovasida keltirilgan: http://www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf.

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlar, shuningdek o‘lik hasharotlar va/yoki kanalar, ularning qoldiqlari hamda ekskretlari (chiqindilari)dan xoli.
- oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or iplaridan xoli;
- achish belgilaridan xoli;
- ortiqcha tashqi namlikdan xoli;
- yot hid va/yoki ta’mdan xoli.

Pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zining holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- tashish va yuklash-tushirish (ishlov berish) jarayonlariga bardosh berish;
- tayinlangan manzildagi qabul qilish joyiga qoniqarli holatda yetib borish.

B. Namlik miqdori[2]

Pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zining namlik miqdori 6.5 foizdan oshmasligi kerak.

C. Tasniflash

"IV. Chetlanishlarga (tolerantliklarga) oid qoidalar" bo‘limida ruxsat etilgan nuqsonlarga muvofiq, pista mag‘zi quyidagi navlarga tasniflanadi:

"Oliy (Exstra) nav", I nav, II nav.

Archilgan pista mag‘zi quyidagi navlarga tasniflanadi:

Oliy (Exstra) nav, I nav.

Ruxsat etilgan nuqsonlar mahsulotning sifati, saqlanish davri va qadoqdagi ko‘rinishi (tashqi ko‘rinishi) borasidagi umumiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak.

D.Rang bo‘yicha tasniflash

Archilgan pista mag‘zi rang ko‘rsatkichlariga ko‘ra tasniflanishi mumkin. Rang bo‘yicha tasniflash qo‘llanilgan taqdirda, quyida belgilangan to‘rtta rang tipi (turi) ajratiladi:

(i) Yashil

Mag‘izning ichki bo‘ylama kesimi yashil yoki to‘q yashil rangda bo‘lishi kerak. Donalar soniga ko‘ra 25 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdordagi pista mag‘izlarida och yashil va/yoki sariq rangli qismlar bo‘lishiga ruxsat etiladi.

(ii) Sarg‘ish-yashil

Mag‘izning ichki bo‘ylama kesimi sarg‘ish-yashil rangda bo‘lishi kerak. Donalar soniga ko‘ra 40 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdordagi pista mag‘izlarida sariq rangli qismlar bo‘lishiga ruxsat etiladi.

(iii) Sariq

Mag‘izning ichki bo‘ylama kesimi asosan sariq rangda bo‘lishi kerak. Donalar soniga ko‘ra 25 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdordagi pista mag‘izlarida yashil va/yoki och yashil rangli qismlar bo‘lishiga ruxsat etiladi.

(iv) Aralash rang

[2] Namlik miqdori Quruq mahsulotlar uchun andoza hujjati (Standard Layout) – Quruq mahsulotlar uchun namlik miqdorini aniqlash I ilovasida keltirilgan usullardan biri bilan aniqlanadi: http://www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf. Nizo yuzaga kelgan hollarda laboratoriya referent (nazorat) usuli qo‘llanilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yuqoridagi toifalarning (kategoriyalarning) hech biriga kirmaydigan turkumlar (partiyalar) ushbu toifaga kiritiladi.

III O‘lchamlarga oid qoidalar

Pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zini o‘lchamlar bo‘yicha saralash (o‘lchamlarini belgilash) ixtiyoriy hisoblanadi. O‘lchamlar belgilanganda, ushbu jarayon 100 gramm yoki bir unsiyadagi (ounce) mag‘izlar soni bo‘yicha amalga oshiriladi.

IV Chetlanishlarga (tolerantliklarga) oid qoidalar

Har bir turkumda (partiyada) ko‘rsatilgan sinfning (toifaning) minimal talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham ko‘rsatkichlari bo‘yicha chetlanishlarga (tolerantliklarga) ruxsat etiladi.

A. Sifat bo‘yicha chetlanishlar

Ruxsat etilgan nuqsonlar moped[a]	Ruxsat etilgan chetlanishlar mahsulot massasiga nisbatan foizda[b]				
	Pista mag‘zi			Po‘stidan tozalangan pista mag‘zi	
	Oliy nav	I nav	II nav	Oliy nav	I nav
(a) Pista mag‘zi va po‘stidan tozalangan pista mag‘zi uchun minimal talablarga javob bermaydigan mahsulotlarga nisbatan ruxsat etilgan cheklanishlar	5	6	8	5	8
- ulardan quyidagilardan ko‘p bo‘lmagan miqdorda:					
- Yetarli darajada rivojlanmagan, burishgan va qurigan donalar,	4	4,5	5,5	4	6,5
- ulardan to‘q tusli qurigan mag‘izlar ko‘pi bilan:	-	-	-	3	3
- Mog‘orlagan	0,5	1	1,5	0,5	1
- Achigan yoki chirish oqibatida zararlangan	1,5	2	2,5	1	1,5
- Zararkunandalar bilan shikastlangan	0	0	0	0	0
- Tirik zararkunandalar					
(b) O‘lcham bo‘yicha chetlanishlar					
Ko‘rsatilgan o‘lchamga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlar uchun (agar o‘lchamlar bo‘yicha saralangan bo‘lsa)	10	10	10	10	10
(c) Boshqa nuqsonlar bo‘yicha chetlanishlar					
- Yot moddalar, ajralgan po‘choqlar, po‘choq parchalari, qobiq qoldiqlari, chang	0,1	0,1	0,2	-	-

---

[a] *Nuqsonlarning standart ta’riflari ushbu hujjatning ilovasida keltirilgan.*
[b] *Sinovlarni o‘tkazish uchun kamida bir kilogramm miqdoridagi minimal namuna birligi talab etiladi.*

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- Teng ikkiga bo‘lingan (ajralgan) va singan donalar (agar butun donalar sharti ko‘rsatilgan bo‘lsa)	15	20	25	20	30
ulardan singan donalar ko‘pi bilan:	10	10	15	5	5
- Butun donalar (agar teng ikkiga bo‘lingan yoki singan donalar sharti ko‘rsatilgan bo‘lsa)	15	20	25	20	20
- Ko‘rsatilgan navdan yoki tijorat turidan farq qiluvchi boshqa nav va tijorat turlariga mansub pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zi	10	10	10	10	10
- Ko‘rsatilgan rangdan farq qiluvchi boshqa rangga mansub archilgan pista mag‘zi	-	-	-	5	20

V Taqdimotga (tovar ko‘rinishiga) oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibidagi mahsulot bir xil (bir jinsli) bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqish mamlakatiga, hosil yiliga, sifat sinfiga, o‘lchamiga (agar o‘lchamlar bo‘yicha saralangan bo‘lsa), naviga yoki tijorat turiga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) va rang tipiga (agar archilgan pista mag‘zi uchun belgilangan bo‘lsa) mansub pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zidan iborat bo‘lishi kerak.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibiga mos bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zi mahsulotni zarur darajada himoya qilishni ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak. Yashil pistalar uchun mag‘iz rangini saqlab qolish (himoya qilish) maqsadida maxsus materiallardan (yorug‘likka sezgir qoplar/paketlardan) foydalanilishi mumkin.

Qadoq ichida qo‘llaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo spetsifikatsiyalari (tavsiflari) tushirilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga faqat matn yozish yoki yorliqlash ishlari toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lishi bilan ruxsat etiladi.

Qadoqlarda "IV. Chetlanishlarga (tolerantliklarga) oid qoidalar" bo‘limining chetlanishlar jadvaliga muvofiq har qanday yot moddalar bo‘lmasligi kerak.

C. Joylashtirish (taqdim etish shakli)

Pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zi qattiq yoki egiluvchan (elastik) idishlarda (konteynerlarda) joylashtirilishi kerak. To‘qimachilik (mato) yoki to‘rsimon qoplardan foydalanilganda, mahsulotni tashqi namlik va ifloslanishdan himoya qilishga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Har bir qadoq ichidagi barcha chakana savdo qadoqlari (birliklari) bir xil vaznga (massaga) ega bo‘lishi kerak.

VI Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[3] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan shaklda va tashqi tomondan ko‘rinadigan qilib ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

[3] *Iste’molchiga bevosita sotish uchun oldindan qadoqlangan mahsulot birliklariga (paketlariga) ushbu markirovka qoidalari tatbiq etilmaydi, biroq ular milliy qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Shunga qaramay, yuqorida ko‘rsatilgan markirovka belgilari har qanday holatda ham ushbu mahsulot birliklari joylashtirilgan transport qadog‘ida aks ettirilishi kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Identifikatsiya (aniqlash ma’lumotlari)

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi: Nomi va jismoniy manzili (masalan: ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, davlat nomi) yoki milliy davlat organi tomonidan rasman tan olingan kodli belgi[4].

B. Mahsulotning turi (tovar xususiyati)

- “Pista mag‘zi” (Pistachio kernels) yoki “archilgan pista mag‘zi” (peeled pistachio kernels).
- Navning nomi va/yoki tijorat turi (ixtiyoriy).
- nomi va/yoki tijorat turi (ixtiyoriy).

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqqan mamlakat nomi va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud (tuman/viloyat) yoki milliy, hududiy yoxud mahalliy joy nomi.

D. Tijorat tavsiflari (spetsifikatsiyalari)

- Navi (toifasi).
- Rangi (archilgan pista mag‘zi uchun, agar ranglar bo‘yicha tasniflangan bo‘lsa).
- O‘lchami (agar o‘lchamlar bo‘yicha saralangan bo‘lsa); 100 gramm yoki bir unsiyadagi mag‘izlar soni bilan ifodalanadi.
- Hosil yili (ixtiyoriy).
- "Yaroqlilik muddati:" (Best before) iborasi va undan keyin tegishli sana (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Ushbu standart Pista mag‘zi va archilgan pista mag‘zi uchun BMT NYUAT (UNECE) standarti sifatida birinchi marta 1990-yilda qabul qilingan.

Oxirgi marta 2010-yilda qayta ko‘rib chiqilgan (tahrir qilingan).

[4] *Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi korxona nomi va manzili aniq ko‘rsatilishini talab qiladi. Biroq, kodli belgi qo‘llanilgan hollarda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi" (yoki unga tenglashtirilgan qisqartmalar) ko‘rsatkichi ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak. Agar ushbu mamlakat mahsulotning kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kodli belgi oldidan uni tan olgan mamlakatning ISO 3166 xalqaro standartiga muvofiq alfa-kodi (ikki yoki uch harfli kodi) ko‘rsatilishi lozim.*

STANDARTLAR INSTITUTI #5OA9R3R8D7 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI